

**YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA
MUQADDAS QADAMJO VA ZIYORATGOHLARNI O'RNI.**

Ibodat Sattorova.

O'zbekiston-Finlyandiya pedagogika instituti
katta o'qituvchisi.

Annotatsiya

Mamlakatimiz ko'hna tarixi, boy ilmiy merosi, rang-barang madaniyati, o'ziga xos urf-odat va an'analarini bilan jahon sivilizatsiyasiga munosib hissa qo'shgan xalqimiz tarixiy taraqqiyotning yangi bosqichida yashamoqda. Mustaqillik sharofati bilan barcha moddiy va ma'naviy boyliklarga yangicha nigoh bilan qarash, umummilliylar milliy ong, milliy madaniyat, milliy o'zlikni anglash, milliy qadriyatlar, milliy g'urur singari millatni millat qiladigan fazilatlar va hislatlarni tiklash hamda ularning milliy mazmunini yangi sharoitda yanada boyitish imkonini berdi.

**THE ROLE OF HOLY STEPS AND PILGRIMAGES IN EDUCATING YOUTH
IN PATRIOTIC SPIRIT.**

Our nation, which has made a worthy contribution to world civilization with its ancient history, rich scientific heritage, colorful culture, unique customs and traditions, is living in a new stage of historical development. With the honor of independence, looking at all material and spiritual wealth from a new perspective created the basis for the implementation of national spiritual reforms. These reforms made it possible to restore the national consciousness, national culture, awareness of national identity, national values, national pride characteristic of our mentality, and to restore the qualities and feelings that make the nation a nation, and to further enrich their national content in new conditions.

Tarixdan ma'lumki, buyuk o'zgarishlar, yangilanishlar, islohotlar sari yuz tutgan har qanday davlatda birinchi galda shu yurt istiqbolini mustahkamlaydigan, taraqqiyotini belgilaydigan, yosh avlod tarbiyasiga alohida e'tibor qaratiladi. Mustaqillik yillarida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar zamirida ham¹⁴³ aynan ana shunday ezgu maqsadlar ko'zlanganligi bejiz emas.

Barkamol avlodni tarbiyalashda, milliy g'oyani yoshlar ongiga singdirishda Vatanimizdagagi muqaddas qadamjolar va ziyoratgohlarning o'rni beqiyosdir. Milliy tuyg'u, g'urur uyg'otadi, ota-bobolarning o'tmishini chuqurroq tanishishga undaydi.

"...Har qaysi xalq yoki millatning ma'naviyatini uning tarixi, o'ziga xos urf-odati va an'analarini hayotiy qadriyatlardan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi. Bu borada, tabiiyki, ma'naviy meros, madaniy boyliklar eng muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi"¹

¹И.А.Каримов. "Юксак маънавият – енгилмас куч". Т."Маънавият" 2008 й. 29-30-бетлар.

Mustaqilligimiz sharofati bilan muqaddas qadamjolarimiz va ziyoratgohlarimizga e'tibor kuchaytirildi. Bu albatta yoshlar tarbiyasida ham katta ahamiyat kasb etadi.

Sohibqiron Amir Temur ham davlat tepasiga kelgan dastlabki kunlardan boshlab buyuk bobokalonlarimiz islom dinining to‘g‘ri yo‘lboshchilar bo‘lgan aziz avliyolar qo‘nim topgan maskanlarga maqbaralar o‘rnattirdi, obodonlashtirdi, bu bejiz emas albatta. Inson borki, ulug‘ insonlar ruhidan madad olib yashaydi, ularni o‘gitlariga amal qiladi.” Islom ta’limotchilari qabrlari ustiga o‘rnatiladigan maqbaralar ularning islom dinini to‘g‘ri talqin qilishdagi bebaho xizmatlari uchun chuqur minnatdorchilik ramzi sifatida qo‘yiladi”² Insonlar o‘zlarining qilgan ishlari bilan o‘zlarini abadiylikka muhrlaydilar. Islom dini targ‘ibotchilari, ta’limotchilari ham o‘z faoliyati orqali ko‘pchiligi yuksak e’zozlarga loyiq bo‘lishdi.

1998 yil hadis ilmining sultonni Imom al-Buxoriy tavalludining 1225 yilligi munosabati bilan bunyod etilgan yodgorlik majmuining ochilish marosimida Birinchi Prezidentimiz quyidagi fikrlarni ta’kidlagandilar: “...Biz Imom al-Buxoriy maqbarasini ul zotning sha’n-shavkatiga munosib, yon atrofi munavvar go‘saga, ziyoratga kelgan mo‘min musulmonlarga ruhiy ma’naviy kuch ato etadigan qadamjoga aylantirishni niyat qilgan edik.

Allohnning inoyati bilan ezgu niyatimiz ijobat bo‘lgan shu qutlug‘ kunda men bu muazzam yodgorlik majmuining shunchaki ziyoratgoh emas, balki go‘zal O‘zbekistonimizni butun dunyoga tanitadigan, har bir insonni hayot va abadiyat haqida o‘ylantiradigan aziz maskan bo‘lib qolishiga ishonaman”.(I.Karimov.”Ma’naviy yuksalish yo‘lida”.T.”O‘zbekiston” nashriyoti. 1998 y. 444-bet.).

Istiqlol sharofati bilan jahon tamadduni tarixida o‘zining beqiyos ulushini qo‘shgan Samarqand viloyatidagi Imom al-Buxoriy, Samarqand shahridagi Imom al-Motrudiyy, Quvadagi Ahmad al-Farg‘oniy, Marg‘ilonda Burxoniddin al-Marg‘inoniy maqbaralari, Toshkentda “Motarsaro ona”, “Shahidlar xotirasi” majmualari,¹⁴⁴ Toshkent, Samarqand, Shahrisabz shaharlaridagi Sohibqiron Amir Temur, Toshkent, Samarqand, Qarshi shaharlaridagi Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov, Toshkent va Samarqandda Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Urganchda Jaloliddin Manguberdi haykallari, “Avesto” haykaltaroshlik kompozitsiyalari barpo etildiki, ular ma’naviy va madaniy merosimizni boyitadi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev 2017-yil 22-yanvarda Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasida ham turizmni rivojlantirishga to‘xtalib:”...Hozirgi kunda milliy iqtisodiyotga yuqori daromad keltiradigan istiqbolli tarmoqlardan biri – bu turizmdir. O‘zbekiston turizm sohasida ulkan salohiyatga ega davlat hisoblanadi. Yurtimizda 7 ming 300 dan ortiq madaniy meros ob‘ektlari mavjud va ularning aksariyati YuNESKO ro‘yxatiga kiritilgan.

...Samarqand, Buxoro, Toshkent shaharlaridagi muqaddas qadamjolari va yodgorliklarni ziyorat qilishdan iborat bo‘lgan “kichik haj” dasturini rivojlantirish va jadallashtirish zarur. Ichki turizm sohasidagi katta imkoniyatlarni ham to‘liq ishga solish lozim”³ Birgina Samarqand misolida aytadigan bo‘lsak, VIII-XII asrlarda Samarqandda islom ta’limoti va madaniyati rivojiga ulkan hissa qo‘shgan bir necha

²(М.Хошимов.”Религиозные и духовные памятники Центральной Азии» САГА 2001.стр.7.).

yuzlab olimu ulamolar yashab ijod qilganlar. Bu olimlarning buyuk xizmatlari tufayli Samarqand muqaddas shahar nomiga sazovor bo‘ldi. XI-XII asrlarda yozilgan “Qandiya” kitobida Samarqandning muqaddasligi, bu shaharga Allohnning nuri yog‘ilishi va uni bir necha ming farishtalar kechayu kunduz balo-qazolardan asrab turishligi alohida ta’kidlangan.

Mashhur fransuz sharqshunos olimi Jan-Pol Ru “ hammadan ko‘ra afsona va rivoyatlar shahri edi, u guyoki ibodatxonaga o‘xshardi, deyarli muqaddas shahar edi”- deb yozgan edi.

Samarqandning shon-shuhratini oshirishda yuzlab vatandosh olimu ulamolarimiz o‘z hissalarini qo‘sghanlar. Shunday allomalardan biri, islom olamida “Imamul-huda” va “Imamul-mutakallimin” (“Haq yo‘lida hidoyatga boshlovchi Imom”, “Kalom olimlarining Imomi”) kabi sharafli ismlarga sazovor bo‘lgan Abu Mansur Muhammad ibn Muhammad al-Motrudiydir.

Islomiy madaniyatning rivojiga ulkan hissa qo‘sghan samarqandlik allomalardan biri Imom Abul Qosim al-Hakim as-Samarqandiydir. IX asr oxirlarida Samarqandda tavallud topgan¹⁴⁵ alloma o‘z davrining mashhur faylasufi, kalomshunosi, fiqhshunosi sifatida tanilgan edi. Yuqorida nomlari tilga olingan bu ikki buyuk alloma Samarqanddagи mashhur Chokardiza qabristonida dafn etilgan. Vahonlanki, bu qabristonda fiqh ilmining peshvosi Burxoniddin Marg‘inoniy ham, 400 ga yaqin saiidlar ham dafn qilingan.

Talaba yoshlarni aynan mana shunday muqaddas qadamjolarga ziyoratini uyushtirish va uning tarixi bilan to‘liq tanishtirish juda katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘ladi. Chunki aynan mana shu muqaddas qabriston sovet tuzimi davrida buzulib aholi uchun uy-joy qilib berib yuborilgan edi. Mustaqillik sharofati bilan bu joy obod qilindi, etarli darajada katta ahamiyat berildi.

Bunday muqaddas qadamjolar shahrimizdagi Xo‘ja Doniyor, Xo‘ja Ahrori Vali, Murod avliyo, Shohizinda, Bibixonim maqbarasi, Hazrati Xizr majmuasi, Amir Temur maqbarasi, Ruhobod maqbarasi, yoki shahar tashqarisidagi Imom al-Buxoriy, Mahdumi A’zam, Imom ad-Doramiy, G‘avsuli A’zam va boshqalarni misol qilish mumkin.

Respublikamizning boshqa shahar va viloyatlarida ham aynan shunday qadamjolar bisyorgina.

Foydalilanigan adabiyaotlar

1.И.А.Каримов. “Юксак маънавият – енгилмас куч”. Т.”Маънавият” 2008 й. 29-30-бетлар.

2.М.Хошимов.”Религиозные и духовные памятники Центральной Азии» САГА 2001.стр.7.).

3.“Халқ сўзи” газетаси 2017 йил 23 декабрь сони.

³“Халқ сўзи” газетаси 2017 йил 23 декабрь сони.